

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARIGA "O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI" FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PED TEHNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Akmaljonov Akbarjon Akmaljon o'g'li

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti
Tarix yo'nalishi talabasi Akmaljonovakbarjon2001@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqola umumiy o'rta ta'lim maktablarida "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanini o'qitishda zamonaviy ped texnologiyalardan unumli foydalanish, fanni o'qitishda samaradorlikka erishish hamda Vatanimiz tarixida mustaqillik arafasi va mustaqillik yillaridagi yuzaga kelgan jarayonlarni o'rganish, xususan, mamlakatimizda mustaqillik arafasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, mustaqillik sari yo'l tutilishi va bu jarayonlarda mamlakatimiz bosib o'tgan tarixiy yo'lning mohiyati va mazmunini o'quvchilar ongiga to'la sindirish va o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida keng fikr-mulohazalar yuritadi.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston, mustaqillik, O'zbekistonning eng yangi tarixi, Vatan, texnologiya, demokratiya, davlat, fuqaro, huquq.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПЕД В ПРЕПОДАВАНИИ «НОВЕЙШЕЙ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА» УЧАЩИМСЯ ОБЩИХ СРЕДНИХ ШКОЛ

Аннотация: *В данной статье рассматривается эффективное использование современных педагогических технологий при преподавании предмета «Новейшая история Узбекистана» в общеобразовательных школах, достижение эффективности преподавания предмета, а также изучение процессов, произошедших в истории нашей страны. накануне независимости и в годы независимости., в частности, общественно-политические процессы накануне независимости в нашей стране, путь к независимости, а также сущность и содержание исторического пути, пройденного нашей страной в эти годы. процессы, а также широкий спектр идей о воспитании студентов в духе патриотизма.- обзоры.*

Ключевые слова: *Узбекистан, независимость, новейшая история Узбекистана, Родина, технологии, демократия, государство, гражданин, право.*

USE OF MODERN PED TECHNOLOGIES IN TEACHING "THE NEWEST HISTORY OF UZBEKISTAN" TO STUDENTS OF GENERAL SECONDARY SCHOOLS

Abstract: *This article examines the effective use of modern pedagogical technologies in teaching the subject "Newest History of Uzbekistan" in general secondary schools, the achievement of efficiency in teaching the subject, and the study of the processes that occurred in the history of our country on the eve of independence and in the years of independence. , in particular, the socio-political processes on the eve of independence in our country, the path towards independence, and the essence and content of the historical path our country has traveled in these processes, and a wide range of ideas about educating students in the spirit of patriotism. - reviews.*

Keywords: *Uzbekistan, independence, the latest history of Uzbekistan, Motherland, technology, democracy, state, citizen, law.*

KIRISH

Mustaqillik yillari ta'lim sohasida yuz bergan o'zgarishlar tufayli mamlakatimizda kadrlar tayyorlash sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarildi. Ayniqsa "Yangilanayotgan O'zbekiston– yangicha dunyoqarash" g'ostida bugungi kunda kechayotgan o'zgarishlar ta'lim tizimini ham chetlab o'tayotgani yo'q. O'zbekistonda Oliy ta'limni rivojlantirishning 2030-yilgacha bo'lgan konsepsiyasining qabul qilinishi, qo'shma dasturlar orqali nufuzli oliy o'quv yurtlari bilan o'zaro hamkorliklarning yo'lga qo'yilishi, O'zbekistonda dunyoning yetakchi oliy o'quv yurtlari filiallarining ochilishi, xalqaro reyting va indekslarda respublika oliy ta'lim tizimining nufuzini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar buning misolidir. Shu bilan bir qatorda ta'lim tizimini rivojlantirish uchun avvalo maktablarda o'quvchi yoshlarga katta e'tibor qaratmog'imiz eng asosiy masala desak mubolag'a bo'lmaydi. O'quvchi yoshlarni umumiy o'rta ta'lim maktablaridan boshlab o'qishlariga asosiy urg'uni bersakkina, kelgusida yahshi natijalarga erishishimiz mumkin. Ushbu maqsad yo'lida esa avvalo, "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fani masalasi va uni fan sifatida o'rganishning yo'lga qo'yilishi, uning predmetiga e'tibor qaratishimiz kerak. Unda vatanimiz tarixida mustaqillik arafasi va mustaqillik yillaridagi yuzaga kelgan jarayonlarni o'rganish, xususan, mamlakatimizda mustaqillik arafasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, mustaqillik sari yo'l tutilishi va bu jarayonlarda mamlakatimiz bosib o'tgan tarixiy yo'lining mohiyati va mazmunini anglab yetish talab etiladi. Bu jarayon qanday borganligini, mamlakatimiz mustaqillik arafasida va uning dastlabki yillarida qanday muammolarga duch kelganini tushunib yetish muhim.

MATERIALLAR VA USULLAR

O'zbek jamiyatida qadimgi davrlardan beri ayrim demokratiya unsurlari: o'zini-o'zi boshqarishning jamoa shakli, mahalla yig'inlari, oqsoqollar kengashlari va xalq diplomatiyasi mavjud edi. Biroq hozirgi kunda ushbu institutlar tomonidan an'anaviy funksiyalar bajarilishining o'zi bilan qanoatlanib bo'lmaydi. Biz ularning faoliyatini hozirgi davr talablariga mos yangi mazmun bilan

to'ldirishimiz maqsadga muvofiqdir. Rivojlangan demokratik davlatlarda siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan birini tashkil etadi. Mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimov fuqarolarning davlat va jamiyatni boshqarishda keng ishtirok etishini ta'minlovchi siyosiy institutlarning xilma-xilligiga asoslangan yangi demokratik tizim negizlarini shakllantirish zarurligiga alohida e'tibor qaratgan.

Sobiq tuzum davrida davlat va yakkapartiyaviylik tizimi shaxs ustidan yalpi hukmronligini o'rnatgan edi. Fuqaroning huquqiy himoyalanmagani, boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usullari, har qanday muqobil fikrlashning tazyiq ostiga olinishi ko'p odamlarda chorasizlik tuyg'usini uyg'otib, real hayotdan uzoqlashish istagini oshirdi. "Siyosiy autsayderlar" deb ataluvchi kishilar sonining o'sishi jamiyatda ijtimoiy pessimizm va boqimandalikning kuchayishiga sabab bo'ldi. O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishda yuqorida ta'kidlab o'tilgan vazifalar qatorida jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy isloh qilishdagi o'zbek modelining konseptual asoslarini idrok etish, davlatimizning global va mintaqaviy integratsiya jarayonlarida ishtiroki bilan bog'liq masalalarning to'g'ri va haqqoniy tahlilini xalqimiz va kelajak avlodga yetkazish burchimizdir.

Fanning predmeti shu mintaqada sodir bo'lgan jamiki voqea va hodisalar, ulardagi umumiylik va aloqadorlik qonuniyatlari, tarixiy hodisa va jarayonlar, umuman insoniyatning barcha tarixiy faoliyat jarayonlarini o'rganishdir. Fanning obyektini aniq tarixiy davr, makon, zamon hamda geografik va umumiy mintaqaviy chegaralar, ma'lum xalqlar, mamlakatlar tarixi bilan bog'liq jarayonlar bo'lib, ular voqea va hodisalarni bir butun va yaxlitlikda qamrab oladi. Fanning maqsadi vatanimiz tarixining mustaqillik arafasi va mustaqillik yillarida bosib o'tgan shonli va murakkab tarixiy yo'lini, xalqning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotini xolisona o'rganish orqali fuqarolar, ayniqsa yoshlar ongida tarixiy xotira, ular qalbida vatanparvarlik, g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirishdan iboratdir. Fanning metodologik, ilmiy-nazariy asoslari O'zbekistonning eng yangi tarixini rivojlantirishga doir davlatimiz rahbarining qarori, tarixiy-ma'naviy merosimizga tayangan holda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ko'plab dolzarb mavzulardagi ilmiy tadqiqot ishlari, darslik va qo'llanmalar, monografiyalar, ilmiy asarlar asos bo'ladi. Fanni o'rganishda ma'lum ilmiy, nazariy-metodologik tamoyillarga tayanish ham muhimdir. Mazkur tamoyillar va metodlar quyidagilardan iborat:

- ilmiylik, tarixiylik, xolislik (obyektivlik) metodi;
- tarixiy tahlil va qiyosiy taqqoslash metodi;
- mantiqiy davomiylik va uzviylik metodi;
- vorislik va izchillik metodiga asoslanish;
- tarixiy xronologik ketma-ketlik tamoyili;
- g.,oyaviylik va vatanparvarlik tamoyili;
- xolislik va o.,zaro hurmat tamoyiliga asoslanish metodi;

- kuzatish, solishtirma taqqoslash asosida umumlashtirish va zaru xulosalar chiqarish metodi;

- bahslashish, munozara yuritish va isbotlash metodi;

- matematik hisoblash, shakl va modellashtirish metodi;

- ayrimlikdan umumiylikka va umumiylikdan ayrimlikka o'tish

O,,rta Osiyo, jumladan O,,zbekiston tarixini zamon talablariga

METADALOGIYA

O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston tarixini zamon talablariga asoslanib davrlashtirish masalasida olimlar orasida hamon bahslar davom etmoqda. Bu masala yuzasidan, xususan, eng qadimgi davrlardan bugungi kunga qadar bo'lgan tariximizni davrlashtirishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan tarixiy-madaniy jarayonlar, masalaga sivilizatsion yondashuv, davrlashtirishning metodologik asoslari kabilarga A.Asqarov, E.Rtveladze, A.Sagdullaev va boshqa olimlar e'tibor qaratgan bo'lishlariga qaramay, davrlashtirish masalalari to'la yechimini topmagan. So'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlardan kelib chiqib, O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalalariga ham qisqacha to'xtalib o'tishni lozim. Chunki, tarixni o'rganishda avvalo, xronologik izchillik asosida davrlarga bo'lib, har bir davrning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'ruzalarni belgilash hamda dars soatlarini taqsimlash maqsadga muvofiqdir. Qanchalik sodda ko'rinmasin, ushbu jihat ham murakkab masala hisoblangan tarixni to'g'ri davrlashtirishni talab etadi. Masalaning eng muhim tomoni esa, yoshlarimizga ilmiy asoslangan davrlashtirish asosida tarix fanidan ta'lim berishdir.

Yuqorida ta'kidlanganimizdek, mustaqillik davriga kelib, haqqoniy tariximizni yaratish borasida olib borilgan tadqiqotlar tufayli sovet davri mafkurasiga asoslangan besh bosqichli formatsion davrlashtirish inkor etildi. Qadimgi tarixni davrlashtirish masalasida tarixiy-madaniy taraqqiyotning ijtimoiy-iqtisodiy omillariga asosiy e'tiborni qaratish g'oyalari paydo bo'ldi. Xususan, A.Sagdullaevning fikricha, O'rta Osiyo tarixining eng qadimgi davri bir necha yuz ming yillarni o'z ichiga oladi. Yevropa va Osiyo hududlarida tarixiy va madaniy jarayonlar rivojlanishining notekisligi, ayniqsa, turli davrlarda moddiy madaniyatdagi o'zgarishlarning bir-biriga mos kelmasligi tufayli, ayrim hududlarga tegishli tarixiy sana va davrlashtirish bir-biridan farqlanadi. A.Asqarovning fikricha esa, O'zbekiston tarixi jahon tarixining tarkibiy qismidir. Bu zaminda yuz bergan tarixiy jarayonlarni jahon tarixidan ajratib o'rganish mumkin emas. Ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarining mahsulidir. Har bir xalq yer kurrasining qaysi mintaqasida yashamasin, taraqqiyotning barcha bosqichlarini u yoki bu darajada bosib o'tishi shart. Ammo, jamiyat rivojlanishi hamma yerda birday kechmagan. Jamiyatning notekis rivojlanish qonuniyati esa, qadimgi zamonlarda ko'proq mintaqaning tabiiy-geografik va ekologik imkoniyatlariga bog'liq bo'lgan. Jamiyat hayotida yuz beradigan tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar,

O'rta Osiyo tarixining rivojlanish darajasi va ana shu mintaqa tarixi taqozo etgan holatdan kelib chiqib, O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston tarixini davrlashtirish mumkin. Tadqiqotchi qiyosiy tahlillar hamda tarixiy jarayonlarni obyektiv aks ettiruvchi omillarga asoslanib, O'zbekiston tarixining eng qadimgi davrdan bugungacha bo'lgan davrini yettita katta xronologik davrga bo'ladi.

O'zbekiston tarixi fanini o'rganishda tarixiy manbalarning o'rni va natijalar

O'zbekiston tarixi fanini o'rganishda tarixiy manbalarning o'rni va ahamiyati katta. Ular xalqning bebaho moddiy va ma'naviy merosi, boyligi hisoblanib, muzeylarda, arxivlarda, kutubxonalarda saqlab kelinmoqda. Manbalar o'z mazmuni va shakliga ko'ra, yozma va moddiy ko'rinishlarga ega bo'ladi. Yozma manbalar eng qadimgi rasmlar yozuvlar, bitiklar, hujjatlar va kitoblardan iboratdir. Hozirgi kunga qadar mamlakatimiz hududida va boshqa hududlarda bitilgan qadimgi va o'rta asrlarga oid yozma manbalarni o'rganish bo'yicha talaygina ishlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramay, bu yo'nalishda qilinadigan ishlar hali ko'p. Mavjud manbalar xalqimiz tarixi, moddiy va ma'naviy qadriyatlari xususida to'liq, zarur va yetarli ma'lumotlarni beravermaydi. Shu boisdan ularni sinchiklab o'rganish, tarjima qilish ilmiy tadqiq etish muhimdir.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'z

Xulosa o'rnida aytish mumkinki O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'z bunyodkor va tashkilotchi, katta tajribaga ega bo'lgan amaliyotchi va teran nazariyotchi sifatida serqirra va samarali faoliyat bilan respublikada millatidan va dinidan qat'iy nazar, odamlar O'zbekistonni o'z Vatani deb hisoblashlariga nafaqat da'vat etdi, balki ular uchun shart-sharoit yaratish qayg'usi bilan yashadi. 1989-yil sentabrida KPSS MQning navbatdagi plenumida ham O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekistonning yangi rahbari sifatida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol tang vaziyatga tushib qolganligini alohida ta'kidlab o'tadi. Biroq, markaz respublikalar milliy manfaatlarini o'ylashdan yiroq edi. Respublikada sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar avvallari markazni qanchalik e'tiboridan chetda qolgan bo'lsa, endilikda ham uni mamlakatda iqtisodiy inqirozlar kuchayib turgan vaqtda bu hol umuman qiziqtirmas edi. Mana shu vaqtda respublika rahbarining haqiqiy milliy rahbar sifatidagi o'rni yaqqol namoyon bo'lgan edi.

O'zbekiston aholisi xohish-irodasini har tomonlama qo'llab-

O'zbekiston aholisi xohish-irodasini har tomonlama qo'llab quvvatlash, xalqning chinakam taraqqiyoti va gullab-yashnashini ta'minlash, uning ma'naviy imkoniyatlarini boyitish zarurligiga asoslanib, O'zbekiston Birinchi Prezidentining "Navro'z xalq bayramini o'tkazish yakunlarni to'g'risida" gi 1990-yil 3-mayda qabul qilingan Farmonga asosan O'zbekiston Respublikasi hududida har yili 21 martni dam olish kuni va umumxalq bayrami kuni deb e'lon qilindi. Navro'zning

bayram qilinishi teran xalq anʼanalari, yerga va tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda boʻlish, dehqon mehnatini hurmat qilish, yaxshi qoʻshnichilik, mehr-muruvvatga va boshqalarning dardiga malham boʻlishga intilishlari qudratli omili boʻldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston tarixi. R. Murtazaeva umumiy taxriri ostida. Yangi asr avlodi 2003. Toshkent.
2. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. R.Shamsutdinov, X.Mo'minov. Sharq 2013. Toshkent.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12-jildlik. Toshkent.
4. Vatan tarixi. R.Shamsutdinov. Sharq 2016. Toshkent.
5. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. I.Karimov. Sharq 1998. Toshkent.
6. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston 2016. Toshkent.